

Dastlabki ma'lumotlar

**2023–yilning yanvar–mart oylarida Farg'ona viloyatining qishloq,
o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023–yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 3 448,6 mlrd. so'mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 103,5 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 347,0 mlrd. so'mni (103,8 %), o'rmon xo'jaligi – 88,4 mlrd. so'mni (103,0 %), baliqchilik xo'jaligi – 13,2 mlrd. so'mni (64,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Farg'ona viloyatining ulushi 8,5 %ni tashkil etdi.



3 448,6

**Farg'ona viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (xizmat) larining hajmi,
mlrd.so'm**



3 347,0

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



88,4


O'rmon xo'jaligi




13,2

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023-yilning yanvar–mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,1 %i – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,6 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so‘m)



2023–yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Oltiariq 382,9 mlrd. so‘m va Farg‘ona tumanlarida 339,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga So‘x tumani 70,8 mlrd. so‘m, Marg‘ilon shahri 79,9, Qo‘qon shahrida esa 86,9 mlrd. so‘m, keltirib o‘tish mumkin.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Viloyat ko'rsatkichidan (103,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (119,8 %), Furqat (112,5 %) tumanlari va Qo'qon (127,6 %) shahrida kuzatildi. Uchko'prik (92,3 %), Farg'ona (94,4 %) va Yozyovon (88,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 300,2 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 254,4 mlrd. so'mni (103,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 3 045,7 mlrd. so'mni (103,8 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




7,7 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



92,3 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibini tahlil qilar ekanmiz eng katta ulushi dehqonchilik mahsulotlarida Oltiariq (54,3 %), O'zbekiston (16,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi, shuningdek chorvachilik mahsulotlarida Farg'ona (10,2 %) va Oltiariq (7,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,1 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,9 %i – fermer xo'jaliklariga, 4,0 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalgalashiruvchi tashkilotlarga to'q'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari haimining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar
bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)**




2023-yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yozyovon tumanida (21,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Marg'ilon shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Farg'ona tumanida (30,6 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich So'x tumanida (1,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi O'zbekiston tumani (78,5 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Yozyovon (0,1 %) va Qo'qon (0,1 %) shahrida qayd etildi.

Sabzavot



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 647 tonna sabzavot (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 0,5 %ga kam) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiylajmidan 99,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Farg'ona viloyati bo'yicha
sabzavot yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2023-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 700,3 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiylajmiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,3 %ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 40,9 ming tonna goʼsht (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 0,2 %ga koʼp), 221,9 ming tonna sut (5,0 %ga koʼp), 99,5 mln. dona tuxum (6,7 %ga kam), 8,0 tonna jun (17,5 %ga kam) ishlab chiqarildi va 809,7 tonna baliq (33,2 %ga koʼp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 40,7 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Farg'ona viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon xo'jaliklari (shaxsiy yordamchi)


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 221,9 ming tonna sut (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 5,0 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Farg'ona viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 99,5 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 6,7 %ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylajmidan 65,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Farg'ona viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona**




Baliqchilik


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 809,7 t. (2022-yilning yanvar–martiga nisbatan 33,2 %ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 72,8 %i fermer xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Farg'ona viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,1 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 7,5 % fermer xo'jaliklariga, 92,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligi sonidan 19,3 % fermer xo'jaliklariga, 77,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 12,2 % fermer xo'jaliklariga, 68,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 054,0 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 3,4 ming taga (0,3 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Farg'ona viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, bosh**




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 382,7 ming taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 9,4 ming taga (2,4 %) kamaydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiyl bosh soni,
bosh




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 906,3 ming taga yetdi.


2022-yilning mos dasvri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilarning bosh soni - 16,8 ming taga (1,9 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 92,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Farg'ona viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
bosh**




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 10 052 taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 148 taga (1,5 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 77,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Farg'ona viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh**




2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 085,0 ming taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 25,2 ming taga (0,3 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 68,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Farg'ona viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiyl bosh soni,
bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 73-241-98-30